TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOJ-TARIF SIYOSATINI METODOLOGIK TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firusa Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumo'minovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTIONAL MECHANISMS 990	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI 995	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH 1001	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI 1006	1006
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI 1010	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI 1016	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ 1020	1020
Ходжаева Наргизахон Анатольевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT 1028	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI 1035	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibrodullo qizi	



KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Boboraxmatova Shohsanam Ibodullo qizi

Termiz davlat universiteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti

E-mail: shohsanamboboraxmatova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada korxonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligi masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda soliq imtiyozlarining rag'batlantiruvchi roli, ularning korxonalarining moliyaviy natijalari, ishlab chiqarish hajmi hamda investitsion faolligiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, soliq imtiyozlaridan foydalanish mexanizmlari o'rganilib, ularning samaradorligini oshirish yo'nalishlari aniqlangan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, statistik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihalari, soliq imtiyozlari, moliyalashtirish, investitsiya samaradorligi, korxona rivoji.

Abstract. This scientific article examines the efficiency of using tax incentives in financing investment projects at enterprises. The study analyzes the stimulating role of tax incentives in the implementation of investment projects, as well as their impact on enterprises' financial performance, production volumes, and investment activity. In addition, the mechanisms for applying tax incentives are examined, and directions for improving their effectiveness are identified. The research employs methods of economic analysis, comparative analysis, statistical analysis, and a systemic approach. Based on the results obtained, scientific and practical recommendations aimed at enhancing the effective use of tax incentives in financing investment projects have been developed.

Key words: investment projects, tax incentives, financing, investment efficiency, enterprise development.

Аннотация. В данной научной статье исследуются вопросы эффективности использования налоговых льгот при финансировании инвестиционных проектов на предприятиях. В ходе исследования проанализирована стимулирующая роль налоговых льгот в реализации инвестиционных проектов, а также их влияние на финансовые результаты предприятий, объёмы производства и инвестиционную активность. Кроме того, изучены механизмы использования налоговых льгот и определены направления повышения их эффективности. В работе применены методы экономического анализа, сравнительного анализа, статистического анализа и системного подхода. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности использования налоговых льгот при финансировании инвестиционных проектов.

Ключевые слова: инвестиционные проекты, налоговые льготы, финансирование, инвестиционная эффективность, развитие предприятия.

KIRISH

Global bozor sharoitida korxonalar faoliyatini barqaror rivojlantirish uchun investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Investitsiya — kelajakda daromad yoki ijobiy natija olish maqsadida moliyaviy resurslarni joriy davrda sarflashdir (investitsiya ta'riflariga oid adabiyotlar). Korxonalarga investitsiya kiritish ularning texnologik modernizatsiyasini ta'minlash, mahsulot hajmi va sifatini oshirish hamda raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, investitsiya jarayonining nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uning samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlash bugungi iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.



Investitsiya — bu aktivlar yoki loyihalarga kelajakda o'sish va daromad olish maqsadida mablag' hamda boshqa resurslarni kiritish jarayonidir. Investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

— moliyaviy investitsiyalar — qimmatli qog'ozlar, depozitlar va boshqa moliyaviy instrumentlarga kiritilgan mablag'lar;

— asosiy kapitalga investitsiyalar — ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangilash va modernizatsiya qilish uchun yo'naltirilgan mablag'lar;

— intellektual investitsiyalar — intellektual mulk, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan sarf-harajatlar.

Korxonalarda investitsiya kiritish bir qator strategik va operativ maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Korxonalar investitsiyalarni quyidagi manbalardan jalb etadi:

— o'z mablag'lari (tayyor pul zaxiralari);

— bank kreditlari va investitsiya kreditlari;

— xususiy investorlar va sheriklik (joint-venture) shartnomalari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida investitsiya jarayonlarini moliyalashtirish va ularni rag'batlantirishda davlatning soliq siyosati muhim vosita sifatida qaraladi. Xususan, A.X. Xamidov investitsiyalarni jalb etish strategiyasida soliq imtiyozlari investitsion muhitni yaxshilash va xususiy kapitalni faol jalb etishning asosiy mexanizmlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. B.O. Tursunov esa O'zbekiston investitsion siyosatini tahlil qilib, soliq yengilliklari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim rag'batlantiruvchi omil ekanini asoslab beradi.

A.T. Qodirov va B. Abdullayevlarning ishlarida investitsiya loyihalarini boshqarish va moliyalashtirish jarayonida soliq imtiyozlarining korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri yoritilgan. Mualliflar soliq yukining kamayishi investitsiya risklarini pasaytirishi, investitsiya loyihalarining o'zini oqlash muddatini qisqartirishi va korxonalarning investitsion faolligini oshirishini qayd etadilar. Shuningdek, Sh. Xolmatov va D. Rasulov korxona iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida soliq mexanizmlarining ishlab chiqarish samaradorligi va kapital qo'yilmalar hajmiga ta'sirini tahlil qiladilar.

Xorijiy olimlar va xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham soliq imtiyozlari investitsiyalarni jalb etishda muhim instrument sifatida baholanadi. I.A. Blank, U.F. Sharp, G.V. Savitskaya va V.V. Kovalyovlarning ilmiy ishlarida investitsiya samaradorligini baholashda soliq omilining moliyaviy natijalarga ta'siri asoslab berilgan. Jahon banki va UNCTAD hisobotlarida esa soliq imtiyozlari to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynashi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika organlari, davlat moliyaviy hisobotlari, soliq tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar asosida to'plandi. Olingan ma'lumotlar soliq imtiyozlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ta'sirini aniqlash maqsadida taqqoslash, iqtisodiy tahlil va umumlashtirish usullari orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat grantlari va subsidiyalar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya loyihasi amalga oshirilishi davomida uni doimiy monitoring qilish va tahlil etish zarur. Ushbu jarayonda loyiha ko'rsatkichlari muntazam kuzatiladi, xatarlar aniqlanadi va boshqariladi, shuningdek, qayta moliyalashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Korxonada investitsiya samaradorligini oshirish bir qator omillarga bog'liq. Xususan, aniq belgilangan strategik maqsadlar asosida investitsiya loyihalari tanlanadi, reja amalga oshirilish indeksleri muntazam tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlarni joriy etish mahsulдорlikni oshiradi. Loyihalarni baholash jarayonida xatarlar prognoz qilinadi va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Korxonaning moliyaviy holati investitsiya jozibadorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Barqaror daromad va yetarli kapital resurslari investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korxonalarda investitsiya kiritish nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlash, balki strategik rejalashtirish, risk-boshqaruv tizimini joriy etish hamda samarali moliyaviy boshqaruvni yo'lga qo'yishni ham nazarda tutadi. Investitsiyalar innovatsiyalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Investitsiyalar deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilgan holda daromad keltirishi yoki muayyan ijobiy samaraga erishishni ta'minlashi zarur.



Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

- birlamchi jamg'arilgan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;
- investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi hamda yangi qurilishlar, kengaytirish, rekonstruksiya va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlash, uskunalar, inventarlar hamda loyihaviy mahsulotlar sotib olish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni o'z ichiga oladi. Investitsiyalar kapital qo'yilmalarga nisbatan kengroq va qamrovli tushuncha hisoblanadi. G'arb mamlakatlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan davlatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar orqali amalga oshiriladi.

Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda har qanday mamlakatning keyingi iqtisodiy yuksalishi investitsiyalarni jalb etish darajasiga bevosita bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyos bo'lib, ularning mohiyatini chuqur o'rganishni talab etadi. Iqtisodiy lug'atlarda "investitsiyalar — kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga, transportga va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini ifodalaydi"¹, deb ta'riflanadi.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarishda yangi vositalarga, turar joylarga hamda moddiy zaxiralarning o'sishiga yo'naltirilgan xarajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish nazariyasida va, umuman, makroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni, jumladan ishlab chiqarish vositalari va inson kapitalini yaratish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Moliya nazariyasida esa investitsiya real yoki moliyaviy aktivlarni sotib olishni anglatadi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning asosiy maqsadi kelajakda daromad olishdan iborat. Demak, investitsiyalar — bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirish jarayonidir. Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'plab omillarga bog'liq.

Avvalo, investitsiyalar hajmi olingan daromadning iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishiga bog'liq. Aholining o'rtacha daromadi past bo'lgan sharoitda daromadlarning asosiy qismi (70–80 %) iste'molga yo'naltiriladi. Daromadlarning o'sib borishi jamg'armaga ajratiladigan ulushning ortishiga olib keladi. Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ko'payishi investitsiyalar hajmining oshishiga sabab bo'ladi va aksincha. Biroq bu holat aholining davlatga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lganda hamda davlat tomonidan investitsion faollik kafolatlanganda to'liq namoyon bo'ladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki kutilayotgan foyda investitsiya kiritishga undaydi. Kutilayotgan daromad normasi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalar hajmi shunchalik ortadi va aksincha. Shuningdek, investitsiyalar hajmiga kredit foizi stavkasi ham katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarz mablag'laridan foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha kredit foizi stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiya investor uchun daromadli hisoblanadi. Shu sababli, foiz stavkalarining oshishi investitsiyalash jarayonining susayishiga olib keladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham ta'sir etadi. Inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, investorning kelajakdagi daromadi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqaradi. Investitsiyalarni jalb etish ko'p jihatdan investitsiya bozorini har tomonlama o'rganish va uni bashorat qilish bilan uzviy bog'liq. Investitsiya bozori investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Investitsiya bozori ishlab chiqarish fondlarining faol qismi va investitsiya xizmatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Uning asosiy unsurlariga talab, taklif, raqobat va baho kiradi. Ushbu unsurlar doimo o'zgarib turadi va bu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi hamda bozor ichidagi omillar ta'sirida yuz beradi. Har bir investor uchun investitsiyaga bo'lgan talabni o'rganish, investitsiya bozorini tahlil qilish va shu asosda o'z investitsiya dasturini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, investitsiyalarni amalga oshirish investitsiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, investitsiya resurslarining shakllanishiga tayanadi va investitsiyalashdan ko'zlangan maqsadlar bilan bevosita bog'liqdir. Maqsadga erishish istagi investorni kapital to'plash va uni belgilangan yo'nalishda safarbar etishga undaydi. Natijada investitsiya jarayonini ifodalovchi mantiqiy ketma-ketlik shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida soliq imtiyozlaridan foydalanish investitsion faollikni rag'batlantiruvchi muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Soliq yukining kamaytirilishi korxonalar ixtiyorida ko'proq moliyaviy resurslar qolishini ta'minlab,

¹ Finansovo-kreditnyy slovar. T.1. M.: Finansy i statistika, 2021.



ularni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda investitsiya loyihalarini kengaytirishga yo'naltirish imkonini beradi. Natijada korxonalarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, ishlab chiqarish hajmi va raqobatbardoshligi oshadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, soliq imtiyozlarining investitsiya samaradorligiga ta'siri ularning qo'llanish mexanizmlari, muddati va maqsadli yo'naltirilganligiga bevosita bog'liq. Soliq imtiyozlari tizimli va aniq mezonlar asosida qo'llanilganda investitsiya risklarini kamaytiradi, investitsiya loyihalarining o'zini oqlash muddatini qisqartiradi hamda investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Aksincha, soliq imtiyozlaridan samarasiz yoki nazoratsiz foydalanish davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga va kutilgan iqtisodiy natijalarning to'liq ro'yobga chiqmasligiga olib kelishi mumkin.

Tahlil natijalariga asoslanib, korxonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- soliq imtiyozlarini investitsiya loyihalarining strategik ahamiyati, innovatsion yo'nalganligi va iqtisodiy samaradorligi mezonlari asosida tabaqalashtirib qo'llash;

- soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini investitsiya loyihalarining o'zini oqlash davri bilan uyg'unlashtirish;

- soliq imtiyozlaridan foydalanish jarayonida investitsiya natijadorligini baholovchi aniq monitoring va nazorat mexanizmlarini joriy etish;

- soliq imtiyozlari bilan bir qatorda kredit, grant va subsidiyalarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish;

- korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va investitsiya boshqaruvini takomillashtirish orqali soliq imtiyozlaridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, soliq imtiyozlari korxonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim rag'batlantiruvchi vosita bo'lib, ularni oqilona va tizimli qo'llash iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda barqaror investitsion muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xamidov A.X. Investitsiyalar va ularni jalb etish strategiyasi. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021.
2. Tursunov B.O. O'zbekiston investitsion siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
3. Jahon banki. Doing Business Report. – So'nggi nashrlar, 580-bet.
4. Qodirov A.T. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyaviy jarayonlarni boshqarish. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019.
5. UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development). World Investment Report. – So'nggi nashrlar, 2022–2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Investitsiya siyosati va investitsiya muhitiga oid yillik hisobotlar.
7. Qodirov A., Abdullayev B. Investitsiyalarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
8. Xolmatov Sh., Rasulov D. Korxona iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. To'xtasinov R. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish. – Toshkent, 2018.
10. Бланк И.А. Инвестиционный менеджмент. – Киев: Ника-Центр, 2017.
11. Шарп У.Ф., Александер Г.Дж., Бэйли Дж.В. Инвестиции. – Москва: Инфра-М, 2020.
12. Савицкая Г.В. Анализ инвестиционной деятельности предприятия. – Минск: Новое знание, 2019.
13. Ковалёв В.В. Финансовый менеджмент: теория и практика. – Москва: Проспект, 2018.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>